

**OLIY TALM MUASSASALARIDA TALABALARNI AXBOROT MADANYATNI SHAKILLANTIRISH**

**Mavludaxon Toshmatova Butabayevna**

Andijon davlat universiteti

**ANNOTATSIYA:** Ushbu maqolada talabalarni axborot madaniyatini shakillantirish va uni amaliyotda qo'llash axborot madaniyati xususiyatlari haqida malumotlar yoritilgan. Oliy talm muassasalari talabalarni axborot olish, katta hajmdagi ma'lumotlarni qayta ishlash madaniyatini rivojlantirish, ularni turli vaziyatlarda optimal xarakter qilish malakasini oshirish bilan birga dasturlashtirilgan, kompyuterlashtirilgan ta'lim usullari va ularni tashkil etish imkoniyatlari haqida malumotlar keltirib o'tilgan.

**Kalit so'zlar.** Axborot madaniyatini, dasturlar, qo'llanmalar, internet, dunyoqarash, axborotlarni o'zlashtirish.

**АННОТАЦИЯ:** Высшие учебные заведения получение студентами информации, большой объем в данной статье освещена информация об особенностях формирования у студентов информационной культуры и ее применении на практике. Приведены сведения о программируемых, компьютеризированных методах обучения и возможностях их организации в высших учебных заведениях Талмуда наряду с развитием культуры получения студентами информации, обработки больших объемов информации, овладением ими навыками оптимального поведения в различных ситуациях.

**Ключевые слова.** Овладение информационной культурой, программами, пособиями, интернетом, мировоззрением, информацией.

**ANNOTATION:** This article covers information about the features of Information Culture of students in the formation of Information Culture and its application in practice. Higher talm institutions provide information on the methods of computerized education and the possibilities of their organization, programmed together with the development of a culture of obtaining information, processing large amounts of information, improving the skills of their optimal behavior in various situations.

**Keywords.** Mastering information culture, programs, manuals, internet, worldview, information.

Bugungi kunda butun dunyoda va jamiyat taraqqiyotida axborot madaniyati har bir millatning ijtimoiy – iqtisodiy holatini namoyon etib kelmoqda. Axborot sohasiga o'tish va uni amaliyotda qo'llash inson faoliyatining hamma turlarida, ya'ni, o'quv, ilmiy-tadqiqot, ishlab chiqarish sohaslarini rivojlantirishda, umuman inson hayotida muhim rol o'ynaydi. Shuni alohida ta'kidlash kerakki axborot madaniyati o'z xususiyatlariga ega.

- Birinchidan uni yo'q qilib bo'lmaydi. Axborotlardan qanchalik ko'p foydalanmaylik, u kamaymaydi. Aksincha umuminsoniyat boyligi sifatida rivojlanib boradi.
- Ikkinchidan- unga nisbatan me'yorning yo'qligi, axborotlar mazmunida u berayotgan ma'lumotning kengligi bilan belgilanadi.
- Uchinchidan axborot materiallari insonlarga kerakligi bilan katta ahamiyatga ega. U mustaqil emas. Shundan ma'lumki, axborotning qimmatini undan olinadigan ma'lumotlarga va uni aniq vaziyatlarda foydalanishga bog'liq.

Chunki, jamiyat va xalq tomonidan to'plangan axborotlarni o'zlashtirishda ularni ma'lum darajada qayta ishlash va foydalanish natijasida muvaffaqiyatlarga erishish mumkin. Axborot

madaniyati bu insonning ijtimoiy faoliyatiga xos bo'lib, bevosita, jamiyat hayoti, potentsiali, ahloqiy, aqliy, ijodiy kuch va qobiliyatlari, shaxsning ijodiy va ma'naviy potentsialida, uning turmush tarzida namoyon bo'ladi va jahon hamjamiyatining ijtimoiy iqtisodiy rivojlanishida muhim o'rin tutadi. Axborot madaniyati insonning ma'lumot darajasini yuqori darajaga ko'tarish bilan chegaralanib qolmay, balki yangi intellektual, yangi turmush tarziga ega bo'lgan va tafakkuri rivojlangan, axborot texnologiyalariga oid bilimlarni egallaydigan shaxsni rivojlantiradi.

Hozirgi vaqtda axborot madaniyatining ko'plab ta'riflari mavjud. Keng ma'noda axborot madaniyati deganda etnik va milliy madaniyatlarning ijobiy o'zaro ta'sirini, ularning insoniyatning umumiy tajribasi bilan bog'lanishini ta'minlovchi tamoyillar va real mexanizmlar majmui tushuniladi. Tor ma'noda - nazariy va amaliy muammolarni hal qilish uchun belgilar, ma'lumotlar, m'lumotlar bilan ishlash va ularni manfaatdor iste'molchilarga taqdim etishning maqbul usullari; axborotni ishlab chiqarish, saqlash va uzatish uchun texnik muhitni takomillashtirish mexanizmlari; shaxsni axborot vositalari va axborotlaridan samarali foydalanish zarur

Axborot madaniyatini shakllantirish sub'ektni sub'ektga, ob'ektni – ob'ektga bo'lgan munosabatlar mazmunini ifodalaydi. Chunki, ushbu jarayonda o'quv, ilmiy tadqiqot, ishlab chiqarish, ijtimoiy-iqtisodiy faoliyatda foydalanish bilan muhim vazifalar hal etiladi. Bunda har bir talabaning axborot jarayonlarining o'ziga xos xususiyatlari va tuzilishi, axborot turlarini bilishi, ta'lim jarayonida va o'z faoliyatlarida amalga oshirishi ularning bilimlarini rivojlantiradi.

Bugungi kunda axborot texnologiyalarining tezlik bilan rivojlanishi xar bir shaxsning bunday muhim o'rab turgan dunyoni bilish, uning kengligi, qadriyatlarini, ilmiy bilimlari, ijodiy faoliyati haqidagi ma'lumotlarni mustaxkamlaydi.

Bugungi globallashuv zamonda jahon jamoatchiligini, xalqimizning xayotining barcha soxalarida amalga oshirilayotgan yangilik va o'zgarishlardan o'z vaqtida xabardor qilish, ayniqsa talabaning axborotlar olishini keng ta'minlash, o'zaro munosabatlarni xolis va xaqqoniy aks ettirishda zamonaviy axborot vositalari, ta'lim va tarbiya tizimi, ma'naviyat va ma'rifat faoliyatlari, axborot texnologiyalari kabilar talabalarning axborot madaniyati va ijtimoiy faolligini, axborot savodxonligini oshirish samaradorligini ta'minlaydi. Albatta ushbu jarayonda dasturlar, qo'llanmalar yaratish, axborot xizmatlarini media texnologiyalar asosida amalga oshirish, kompleks chora-tadbirlar ishlab chiqish va ularni amalga oshirishda proffesor va o'qituvchilarning faoliyatini takomillashtirish, jamiyat hayotidagi dolzarb muammolar, qonunlarning mazmun – mohiyatini talabalarga tushuntirishda OAV xodimlari bilan uchrashuvlar o'tkazish, davra suhbatlarini tashkil etish, ularning savollariga mutaxassislar tomonidan haqqoniy faktlar asosida javoblar berish, "Axborotlarga mening fikrim", "Axborot tizimi", "Ta'lim muxitini axborotlashtirish" kabi ko'rik tanlovlari o'tkazish asosida iqtidorli yoshlarni aniqlash, ommabop risolalar tayyorlash, nashr etish, ularning taqdimotlarini o'tkazish; "Axborot bilimdonlari" o'quv mashg'ulotini joriy etish kabilar axborot madaniyatini rivojlantirishda muhim ahamiyat kasb etadi. Chunki, ushbu jarayonda talabada mulohaza qilish, izlanish, fanlarga oid topshiriqlarni bajarish, qiziqish, fikr yuritish, mulqotga kirish kabi xususiyatlar rivojlantiriladi. O'qituvchi mashg'ulotlar jarayonida talabalarda muammolarni mohirlik bilan hal qilish, ma'lumotlar to'plash, axborot resurslaridan foydalanish, nazariy bilimlarni oshirish, zamonaviy bilimlarni egallash kabi xususiyatlarni rivojlantiradi.

Pedagogika fanlari doktori, KSUKI dotsenti N.B.Zinovyeva shaxsning axborot madaniyatini shakllantirishning asosiy predmetini "ijtimoiy ahamiyatga molik axborotning butun hajmini o'zlashtirish jarayonida shaxsning ichki dunyosini uyg'unlashtirish jarayoni" deb hisoblaydi.

Talabalarda axborot olish, katta hajmdagi ma'lumotlarni qayta ishlash madaniyatini rivojlantirish, ularni turli vaziyatlarda optimal xarakter qilish malakasini oshirish bilan birga dasturlashtirilgan, kompyuterlashtirilgan ta'lim usullarini amalga oshirishi, munozara treninglar, rolli va ishbilarmon o'yinlarni tashkil etish imkoniyatini beradi. Axborotlar asosida o'z manfaatlari, qarashlari, ijtimoiy ko'rsatmalari, yo'nalishlari, ishonchi, ma'naviy - estetik tamoyillar va dunyoqarash, idrok etish, axborotni aniqlash, mutolaa qilish, o'zini tarbiyalash va kitob o'qish, bunyodkorlik, yaratuvchanlik, bilimdonlik, boshqaruvchanlik, faollik, tirishqoqlik, talabchanlik, onglilik, fidoyilik, iroda, axloq, mexnatga munosabat, faolyat jarayonida o'zaro munosabat kabilar rivojlanadi. Ushbu ishlarda talaba faoliyatining kompyuterda mexnat qilish, izlanish, o'z nuqtai-nazari, qarashlarini shakllantirish uning dunyoqarashi va kasbga bo'lgan munosabatini namoyon etadi.

Xar bir axborot asosida to'plangan ma'lumotlar talabaning obektiv va mustaqil fikr yurituvchi mutaxassis sifatida shakllanishiga, bilimlarni egallashiga, mantiqiy fikrlashga, muammolarni echishga yordam beradi. Bunday yondashuv o'qituvchi xamda talabalardan ijodkorlikni talab qiladi. Chunki, ijodkor o'qituvchilar talabalarda axborot madaniyatini shakllantirishda internet va kompyuter imkoniyatlaridan keng va samarali foydalanadi. Bunda o'qituvchining talabalarda axborot madaniyatini shakllantirishning samarali shakl va usullarini to'g'ri tanlay bilishi, ya'ni internet va kompyuter orqali axborotni yig'ish undan foydalanish qobiliyatiga ega bo'lishi lozim. Chunki internet orqali olingan xar bir ilmiy yangilik, yaratilgan kashfiyot talabaning yangicha fikrlashiga va dunyoqarashini shakllantirishga asos bo'lib xizmat qiladi.

#### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR.

1. Jumanqo'ziyev O.O., p.f.f.d PhD TALABALARNING AXBOROT MADANIYATI RIVOJLANTIRISHNING NAZARIY METODIK ASOSLARI <file:///C:/Users/user/Downloads/talabalarning-axborot-madaniyati-rivojlantirishning-nazariy-metodik-asoslari.pdf>
2. Uktamjon, Jumankuziev. "THE ROLE OF TEACHERS IN TEACHING PROGRAMMING LANGUAGES IN HIGHER EDUCATIONAL INSTITUTIONS OF PEDAGOGY." *Gospodarka i Innovacje*. 41 (2023): 360- 362.
3. Jumankuziev, U. "USING NEW APPROACHES TO TEACHING PROGRAMMING LANGUAGES IN SECONDARY SCHOOLS." *Galaxy International Interdisciplinary Research Journal* 11.5 (2023): 280-283.
4. Жуманкузиёв, Уктамжон, and Уткир Йулдошев. "Подходы обучения языкам программирования в общеобразовательных школах." *Общество и инновации* 2.5/S (2021): 344-350.